

## MAKTABLARDA INGLIZ TILIGA E'TIBOR

Abdumajidova Dilnoza

*Namangan viloyati Yangiyo'rg'on tumani 9-maktab o'quvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktablardagi ta'lim va chet tillariga, xususan, ingliz tiliga e'tibor, yoshlarning til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi, qiziqishi, ularga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, chet tillari, ingliz tili, dars soatlari, o'quv materiallari, o'qituvchilar, prezident farmonlari, zamonaviy texnologiyalar.*

**Abstract:** *This article talks about education in schools and attention to foreign languages, especially English, young people's enthusiasm and interest in language learning, opportunities created for them.*

**Key words:** *education, foreign languages, English, lesson hours, educational materials, teachers, presidential decrees, modern technologies.*

“Xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqt-soati keldi.” - deydi o'zlarining ma'ruzalarida hurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. O'zbekistonning har bir yetishib kelayotgan yosh avlod hech kimdan kam bo'lmagan, dunyo ta'lim standartlari darajasiga to'liq javob bera oladigan yetuk bilimli-ilmli bo'lishi shart va bunga jon-jahdimiz bilan kirishishimiz kerak. Bugungi kunga kelib chet tillari ayniqsa, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki bog'cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha ingliztilini o'rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobiy holat albatta, chunki, til o'rganish o'sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf odatlarini o'rganish bilan birga shaxsiy manfaatlari yo'lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi. Qayd etib o'tilgandek mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim To'g'risida”gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillariga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikasining jahon hamjamiyatiga yanada yo'naltirilgan tizim yaratildi.

Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir nechta yo'nalishi tanlab olinib, alohida e'tibor bilan rivojlantirilmoqda. Chet tillari ham ana shunday ustuvor sohalardan biri sifatida chuqurlashtirib o'qitilmoqda. Hozirgi kunda aynan chet tillari biz yoshlar e'tiborini tortmoqda. Bunga sabab, chet tillarini o'rganish cheksiz imkoniyatlarni yaratadi. Shu sababli ham yoshlarga keng imkoniyatlar yaratish uchun prezidentimiz aynan ingliz tilini chuqurroq o'qitish to'g'risida bir nechta qaror va farmonlar e'lon qildilar. Davlatimiz rahbari chet tillari bo'yicha eng yaxshi maktablarni aniqlash uchun Prezident sovrinini ta'sis etish taklifini bildirganlari o'quvchilarga kuch berdi fanga e'tibor yanada ortdi. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda ingliz tili darslari qo'yilgani va bolaning darajasiga mos tarzda o'z ona tilisi bilan bir qatorda chet tili, ya'ni ingliz tilini o'rganishi mumkinligini aytishimiz mumkin. Shuningdek yuqori sinflarda ingliz tili darslari uchun qo'shimcha dars soatlari kiritilgani fanni yaxshi o'zlashtirish uchun qilingan yordamdir. Shuningdek, o'quv materiallari ham yangilangani,

ma'lumotlar bilan boyiganligi ham e'tiborga sazovor, sabab esa o'quvchilar darsga yanada qiziqish va ishtiyoq bilan kiradilar. Ingliz tili fani o'qituvchilari uchun til sertifikatlarining ta'limga kirishi ham o'quvchi, ham o'qituvchi uchun faydalidir. Chunki o'qituvchi o'z ustida ishlaydi va yanada yaxshiroq ta'lim bera oladi. Bu esa o'quvchining ta'lim olishini yengillashtiradi va sifatini oshiradi. Shunday sharoitda ta'lim olgan o'quvchi yuqori natijalarni qo'lga kiritadi.

Chet tilini o'qitishda zamonaviy texnologialardan foydalanish samaradorlikning oshishiga yordam bera oladi. Misol uchun mashg'ulot davomida chet tildagi video rolikni ko'rish orqali o'rganuvchining eshitish ko'nikmasi yetarli darajada rivojlanadi. Ba'zi bir hollarda esa videolar uchun berilgan izohlar ularning yozish, o'qish va hattoki gapirish ko'nikmalarini o'stirishida ham yetarlicha o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunday hollarda biz kompyuter, magnitafon, proyektor, CD disklar va kassetalardan foydalanishimiz mumkin. Texnologiyalar asrida eng zamonaviy texnologilar orqali ta'lim olish o'quvchini fanga qiziqishini oshiribgina qolmay, chet tillarini o'rganishni osonlashtiradi. Mana shunday texnologiyalarning maktada bo'lishi esa endi ingliz tilini o'rganishni boshlagan o'quvchilar uchun fanni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini o'rganish uchun olib borilayotgan islohotlar va qulayliklar barchasi hozirgi yoshlarimiz uchun imkoniyatlar eshigini ochilishi deb bimalol aytishimiz mumkin. Bunday imkoniyatlardan to'g'ri va samarali foydalangan holda chet tillarini mukammal o'rganib yurtimiz kelajagi, iqboli uchun o'z hissamizni qo'shishimiz va albatta hayotimizni yanada osonlashtirish uchun o'z bilimimizga tayangan holda ixtiro, kashfiyotlar qilishimiz zarur va bizga yaratilayotgan imkoniyatlardan keng ko'lamda foydalanib O'zbekiston yoshlarini dunyoga tanitishimiz bizning maqsad va burchimizga aylanishi lozim. Zero, chet tilini o'rganish - davr talabi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-maydagi PQ-5117-SON qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi 465-1-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonunini.
3. Muminova, F. M. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish.
4. O'.Hoshimov, I. Yoqubov "Ingliz tili o'qitish metodikasi" (o'quv qo'llanma) Toshkent "Sharq" nashriyoti 2003
5. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.